



LUQMON BO'RIXON NASRIDA MILLIY MENTALITET VA BADIY PSIXOLOGIZM

Ruziyeva O'g'ilnor Egamberdiyevna

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Tel: 998 97 772 14 03

E-mail: u.ruziyeva2909@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21337795>

Annotatsiya

Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Luqmon Bo'rixon hikoyalarida milliy xarakter va koloriti ifodalanishining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif adabiy detallar, personajlar xatti-harakati, hududiy stereotiplar va dialektizmlar orqali o'zbek xalqining ruhiy-psixologik qiyofasi hamda mentaliteti qanday ochib berilganini asarlar misolida yoritadi. Tadqiqotda milliylik tushunchasining badiiy asar hayotiyliigi va estetik qimmatini ta'minlashdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy asar, milliylik, milliy xarakter, kolorit, detal, etnik stereotip, mentalitet, Luqmon Bo'rixon, obraz, dialog, lisoniy xususiyatlar.


Аннотация

В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности проявления национального характера и колорита в рассказах известного писателя Лукмана Бурихона. На примерах произведений автора раскрывается, как через художественные детали, поведение персонажей, региональные стереотипы и диалектизмы отражаются духовно-психологический облик и менталитет узбекского народа. В исследовании научно обоснована роль национальной специфики в обеспечении жизненности и эстетической ценности художественного произведения.

Ключевые слова: Художественное произведение, национальная специфика, национальный характер, колорит, деталь, этнический стереотип, менталитет, Лукман Бурихон, образ, диалог, лингвистические особенности.

Abstract

This article analyzes the artistic and aesthetic features of the manifestation of national character and local color in the short stories of the famous writer Luqmon Bo'rixon. Through the analysis of specific works, the author highlights how the spiritual-psychological image and mentality of the Uzbek people are revealed through literary details, character behavior, regional stereotypes, and dialectal elements. The study scientifically substantiates the role of the national identity concept in ensuring the realism and aesthetic value of a literary work.





Keywords: Literary work, national identity, national character, local color, detail, ethnic stereotype, mentality, Luqmon Bo'rixon, image, dialogue, linguistic features.

Badiiy asardagi milliylik ko'p hollarda yozuvchi mansub bo'lgan hududning o'ziga xosliklarini, elatning, xalqning ruhiy-psixologik holatini, turmush tarzi yaqqol aks etganligini anglatadigan tushunchadir. Hech qanday badiiy asarda baynalmilal milliylik bo'lishi mumkin emas, negaki, mushtarak jihatlar milliy o'ziga xoslikni ko'rsatmaydi, aksincha uni yo'qqa chiqaradi. Sho'ro davrida yaratilgan aksariyat asarlarda ruslashtirish siyosati oqibatida milliylik aks etadigan detallarni imkon qadar qo'llamaslik, bunday jihatlarni bo'rttirmaslik hollari keng yoyilgan edi. Ammo unutmaslik kerakki, iste'dodlarning dunyoqarashi, avvalo, muayyan millat bag'rida shakllanadi, Masalan, Chingiz Aytmatov yaratgan badiiy asar namunalari vositasida qardosh qirg'iz xalqining psixologiyasini, o'zligini, hayot kechirish sharoitlarini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Demak, san'atkor dunyoqarashi ijtimoiy hayotning in'ikosidir.

Adabiyotshunos To'xta Boboyev milliylik va umuminsoniylikni solishtirar ekan, jumladan, shunday yozadi: "Milliylik va umuminsoniylikning estetik kategoriya sifatidagi mohiyatini to'g'ri anglamay turib, badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlarini, o'ziga xosligini, ijtimoiy-estetik vazifasini, hayot bilan adabiyot o'rtasidagi dialektik munosabatni tushunish mushkul... Umuman olganda, adabiyot xalqning hayoti, kasb-kori, ijtimoiy ongini aks ettirish yo'li bilan uning milliy xarakterini ifodalaydi" [1, 85]. Haqiqiy ijod ahli yaratgan san'at namunalarining obrazlari shunchaki, rasman emas, butun borlig'i bilan milliy bo'ladi, masalan, ularning o'zini tutishi, so'zlash maneralari, hatto qiliqlari ham milliy xarakterni namoyon qiladi.

Ijod ahlining asosiy missiyasi predmetlashtirilgan obraz orqali, turli ta'sirlantiruvchi kuchga ega bolgan detallar, epizodlar orqali, umuman olganda, butun bir syujet komponentlari vositasida o'zining xulosa va qarashlarini betakror yo'sinda o'qirmanga yetkazishdir, bu qarashlarni qay darajada qabul qilish masalasi ham ko'p hollarda o'qirmannning o'ziga bog'liq bo'lgan jarayondir. Masalan, Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasidagi Saodat aya obrazi tasvirida ishlatilgan o'sma, sandiq, kalit, so'ri detallari, uning itiga gapirgandagi nutqiy o'ziga xosligi, sandiq kalitini yoki erining medalini o'rilgan sochini uchiga taqib qo'yishi kabi milliylikka yo'g'rilgan epizodlar bu obrazga "ozbek ayoli" pasportini taqdim etgan desak, to'g'ri bo'ladi.

Biror millat ongida etnik stereotip sifatida namoyon bo'ladigan xususiyatlar ham badiiy asarda milliy koloritni ko'rsata olishi mumkin, masalan, Tog'ay Murod





yaratgan Bo'ri Polvon obrazi ("Yulduzlar mangu yonadi" qissasi) butun borlig'i bilan haqiqiy surxondaryolik bo'lsa, Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanidagi Lolaxon timsoli butun xatti-harakati bilan shaharlik, ya'ni toshkentlik kelin ekani yorqin aks ettirilgandir. Ushbu romandagi Chinor Moyliyev esa turish-turmushi, o'zini tutishi bilan haqiqiy dashtlik, cho'llik rais. Hududiy va genetik jihatlar ham badiiy asar predmeti hisoblangan obraz orqali milliylikni o'zida akslantiradi.

Badiiy asarning xalqchilligini va milliy xarakterni ko'rsatib berishda yozuvchi qo'llagan detallar ham kuchli ma'no tashuvchi vositalardan sanaladi. Masalan, Shukur Xolmirzayevning "O'zbeklar" («O'zbek xarakteri») hikoyasida to'n, paxta, paxtazor, qo'y, choy, ro'mol, belbog', ituzum, qo'ra kabi detallar millatimiz xarakterini yaxshigina ochib berishga xizmat qilgan. Yuqoridagi hikoyada fe'l, xulq, urf-odat, rasm-rusum va psixologik lavhalar vositasida madaniyat, axloqdagi milliy ko'rinishlar va hatto mentalitetga tegishli nuqsonlar ham yaqqol namoyon bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, ijodkorning dunyoqarashi, uning siyosiy, ilmiy, tarixiy, estetik qarashlaridan tashqari, ayni bir millatga mansubligi bilan ham shakllanar ekan. Voqealikni obrazli umumlashtirishda milliylik estetik jihatdan katta rol o'ynaydi. Umumlashma qiymatiga ega bo'lgan, asar zamiriga chuqur singdirilgan milliy xarakter hayotiylikni ta'minlashi bilan bir qatorda estetik kuchga va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'ladi, asarning tasviriy jihatlarini mukammallashtirishga xizmar qiladi.

Luqmon Bo'rixon asarlarida qo'llangan milliy xarakter ko'p hollarda yumor vositasida ochib beriladi, bu holat obrazning muayyan vaziyatini tashbehlashda aniqroq ko'rinadi. Bunday tasvir asarning qimmatini, syujetning hayotiyliigi va tabiiyligini ko'rsatish bilan bir qatorda o'qirmanda o'tkir ta'sirlanishni yuzaga keltiradi. Masalan, L. Bo'rixonning "Kutilgan kun" hikoyasidagi Boyxon obrazi tasviridagi bir epizod uning ruhiyatini, psixologiyasini, temperament xususiyatlarini ochib berish bilan birga o'zbek qishloqlaridagi yoshlar xarakterini yaxshi ifodalay olgan: "Nihoyat o'sha arzanda kun ham yetib keldi-yu, tong qorong'usida ikki oylik kelinchakni sarosimada qoldirib ko'chaga otildi. Ammo ko'cha eshigi orqasida xotini yuvib dazmollagan shimni obdon g'ijimlashni unutmadi" [2]. Yangi uylangan Boyxonning bunday qilishiga sabab, ko'chadagi oshna-og'aynilarining dazmollangan shimini masxaromuz gapirishlarini, uni uylanib po'rim bo'lib ketganlikda ayblashlarini istamadi. Ushbu hikoyada milliy xarakter detallarda emas, obrazning xatti-harakatida namoyon bo'lgan.

Luqmon Bo'rixonning "Tumor" hikoyasida ham tumor detali, ko'z tegishidan saqlanish, momolar merosi, qaynonadan kelinga o'tadigan qadimiy taqinchoq





kabilar o'zbek ayollari siymosini yaqqollantirsa, uzoq chet el safaridan qaytgan er uyida uni kutib olgan xotinning ilk ko'rishuvlaridagi holat va nutqlari ham qahramonlarning milliy qiyofasini juda ishonarli tarzda belgilab bergan:

– Assalom...

Matluba ikkala qo'lini ko'ksiga qo'yib, negadir eriga emas, uning oyoqlari ostiga tikilgan ko'yi peshvoz chiqdi. To'lqin fermer bosh iring'ab alik olgan bo'ldi" [3, 357]. Endi ana shu holatni fransuz yoki ingliz ijodkori tasvirlasa, qanday bo'lishini tasavvur qilsak, butun bir epizodning noo'xshashini kuzatgan bo'lar edik. Yozuvchi yuqoridagi epizodda er-xotin To'lqin va Matluba dialogini quyidagicha tasvirlaydi.

–Yaxshi o'tiribsizlarmi,-deb qo'ydi u poyabzalini yechib ichkari kirarkan.


–Tuzuk...

–Bolalar ko'rinmaydi?

–Salimingiz mollarni haydab ketgan, Sardor hali maktabdan qaytmadi" [3, 357-358]. Yuqorida tasvirlangan dialogik nutq real hayotda ham har bir safardan qaytgan o'zbek va uni uyida kutib olgan o'zbek ayoli o'rtasida deyarli o'zgarishlarsiz ro'y berishi aniq. Hikoyadagi yana bir epizod millatimizgagina oidligi bilan diqqatni tortadi: eri hozirgina yechgan poyabzalni xotini artib dahlizga qo'yayotgani. Aslida bu tasvir o'zbeklar uchun shunchalar tabiiyki, bu ishni kerak bo'lsa har bir o'zbek ayoli har kuni qiladi. Yozuvchi hikoyaga qo'shgan bu tasvir ham ayolning eriga bo'lgan hurmatini, fidoyiligini, aytish mumkinki, muhabbatini, qolaversa, Matlubaning go'zal axloqi va tarbiyasini ko'rsatib turgan tafsildir. Ammo ushbu tasvirni g'arb adabiyoti namunalarida, umuman, uchratmasligimiz mumkin, chunki g'arb ayolining eri kiygan poyafzalni tozalab qo'yishi tasavvur qilinishi anchayin qiyin holat. Duch kelinganda ham bu holat teskari tasavvur hosil qilgan bo'lar edi: feodal er, huquqlari poymol qilinayotgan ayol va hokazolar. Bundan ko'rinadiki, dunyoqarash millatlararo ham farqlidir.

Ayrim san'atkorlarning yaratgan asarlari ayni bir millat haqida o'qirmanda tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Masalan, bugunning ijodkorlaridan Elchin Safarli yaratgan, yaratayotgan obrazlar orqali azarbayjon xalqining o'zligini, milliy belgilarini yorqin tasavvur qilsak, Xolid Husayniy asarlaridagi qahramonlar orqali qo'shni afg'on xalqining milliy xarakterini ko'ramiz, chekayotgan iztiroblarini qalban his qilamiz. Haqiqiy ijod ahli ana shu yo'l bilan o'z millatini dunyoga tanitadi, o'zi mansub bo'lgan vatanni jahonga ko'z-ko'z qiladi.

Luqmon Bo'rixonning "Ovchi qismati" hikoyasida tasvirlangan milliy jihatlar asar poetikasiga ijobiy ta'sir qilgan. Hikoyada, umuman, tanish bo'lmagan,





shahardan kelgan mehmonlarga munosabat, o'zbekona mehmondostlik va muomala milliylik qirralari sifatida ko'rinadi. Ayniqsa, mehmonlar oyog'i ostiga jonliq so'yilishi tasviri xalqimizning milliy urf-odatini namoyon etadi: "O'sha kech qo'noq uchun bir echki so'yilib, qozonga solindi, chog'roqqina mehmonxonamizga qalin ko'rpachalar to'shalib, ko'pdan beri olov ko'rmagan pechiga archa o'tin yoqildi, ishqilib, uzoq shahardan kep qolgan mehmonlarning izzati joyiga qo'yildi" [3, 342].

Hikoyachi qahramon, ya'ni ovchining o'g'li tilidan aytilgan yuqoridagi nutqdan ma'lum bo'ladiki, tog' qishining sovuq kunlarida mezbonlarning o'zlari uchun yoqilmagan olov mehmonlar uchun yondirilgani ("ko'pdan beri olov ko'rmagan pech" jumlasiga e'tibor bering), ehtimol, o'zlari necha kunlar go'sht yemasa-da, umuman kutilmagan, buning ustiga tanish bo'lmagan mehmon uchun echki so'yilishi kabilar faqat o'zbekkagina xos bo'lsa kerak. Yuqoridagi tahlillardan shuni kuzatdikki, milliy xarakter badiiy yaratiqda, asosan, uch ko'rinishda – voqeada, obraz xarakterida, detallar orqali yuzaga chiqariladi.

Qaysi ko'rinishda bo'lmasin, milliy kolorit yorqin ifodalangan asarlar kitobxon ko'ngliga yaqin bo'ladi, yoinki o'zga millatga mansub kitobxonda ayni bir xalq psixologiyasi, yashash tarzi haqida yaxshigina ma'lumotlar bazasini taqdim etadi. Bu o'rinda ma'lumot deganda tasavvur bilan chambarchas bog'liq bo'lgan san'at vositasida olingan estetik tushuncha nazarda tutilyapti.

"Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasida Luqmon Bo'rixon milliy xarakterni detallar orqali emas, voqealar orqali yoritadi. Biz o'zbeklarda shundayki, qishloqdan chiqqan shaharliklar o'zlari mansub bolgan qishloqning har bir odamini aziz mehmon kabi kutib olishga, uning shahardagi ishi bitguncha kunlab, haftalab o'z uyi to'rini bo'shatib berishga, yoki boshi-keti ko'rinmaydigan jiyanlarning o'qishi bitguncha beminnat joy bilan ta'minlab, osh-ovqatiga sherik qilishga majburlik mavjud. Bu holat har bir shaharlik uchun yozilmagan qonun. Hikoya nomidan ham ko'rinib turibdiki, cho'ldan kelgan mehmon Samad Do'lanov va uning xotini Shirina uchun anchayin tashvish. Ammo uni qabul qilmaslik go'yo mumkin emas, bir kecha bo'lsa-da mehmon qilmasdan jo'natishga Samad Do'lanov andisha qiladi, hatto qo'rqadi.

Xo'sh, nimadan qo'rqadi? Kutilmagan, istalmagan mehmonning qishloqqa borib, norozilanishidan, albatta. Bu holatda Samadning kechinmalari quyidagicha beriladi: "Samad uyiga sahroyi so'xtaning kelishini nechog'lik istamayotgan bo'lsa, uni xafa qilib qo'yishdan ham shunchalik cho'chiyotgan edi. Axir, gap chuvalashsa yomon-da. Ergashvoyning shaharlik erkatoyi bechora hamqishlog'ini uyiga kiritmabdi degan shivir-shivir sassig'iga chidab bo'ladimi?!"





[3, 294]. Ushbu hikoyada biroz kinoyaviy yo'sinda bo'lsa ham milliy mentalitetimizdagi mehmondo'stlik odatining ayrim hollarda suiiste'mol qilinishi ochib berilgan. Darhaqiqat, bir hududda istiqomat qilishi, ayni bir millatga mansubligiga qaramasdan, qishloq va shahar aholisining ham dunyoqarashida farqli xususiyatlar mavjud va bu jihat yuqoridagi hikoya uchun yaxshigina material bo'la olganini ko'ramiz. Hikoyadagi Samad va Shirina juftligi hamda qishloqlik Ulash agranom obrazida umummilliy xarakterlar bir xil bo'lsa-da, xususiy farqlar ham mavjudligi ayon haqiqat.

“Boltaboyning bolasi” hikoyasida millylik masalasi, asosan, detallar orqali namoyon etilgan: tomorqa, olacha to'n, chorpoya, duo, ketmon kabi detallar orqali Boltaboyning kamsuqumliligi, qarindoshi Idrisovlarga nisbatan oqibatligi ko'rsatib berilgan bo'lib, qarindoshlarining boy-badavlat ekanligining Boltaboyga umuman ahamiyati yo'qligi, ulardan hech narsa ta'ma qilmay, oqibat uchun yo'qlab turishi milliylik koloriti fonida tasvirlab berilgan: “U butun oilasi bilan Kaltaqir etagidagi bog'da ishlaydi, o'sha yerdagi bir parcha tomorqani tirnoqlab amal-taqal tirikchilik qiladi... Qishin-yozin egnidan ohorsiz, olacha to'n tushmaydi. Qari bog'bon ahyon-ahyon bog'ning meva-chevalaridan, tomorqaning sabzavotlaridan ko'tarib qiyshayibgina darvozadan kirib keladi. Chorpoyaga omonatgina ket qo'yib, uzundan uzoq duo qiladi... Andak o'tirgach indamaygina ortiga qaytib ketadi”[4, 112].

Bu o'rinda Boltaboyning portreti, yurish-turishi tasvirlangan bo'lsa-da, ayni shu tasvir uning ichki olamining ham ko'zgusidir. Hikoyada qo'llangan tafsillar va detallar ushbu obrazning psixikasini yaxshi yoritgan. Bu detallar bir vaqtning o'zida ham personajni xarakterlagan, ham asar muallifining unga nisbatan iliq munosabatini ifodalagan. Hikoyada Luqmon Bo'rixon Boltaboyning faqat xatti-harakatlarinigina tasvirlaydi. Hatto hikoyaning biror o'riniga bu obrazning nutqini ham kiritmaydi, ya'ni uning tuyg'ulari va fikrlari to'g'risida atayin bir so'z demaydi. Shu usul bilan o'qirmanga Boltaboyning ruhiyatini tasavvur qilishga imkon yaratadi.

Badiiy yaratiqda muayyan shevaga tegishli bo'lgan so'zlarni personaj tilida qo'llash ularning nutqiy individualligini ta'minlashda qo'l keladi. Juda kamdan kam hollarda dialektal so'zlar muallif bayonida ham ishlatiladiki, bu mahalliy koloritni yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Luqmon Bo'rixonning “Ovchi qismati” hikoyasida qo'llangan hududiy chegaralangan tipdagi so'zlarga oid sas, qoruvli, dorimoq, qo'noq, so'narmoq kabi so'zlarning qo'llanilishi shunchaki lingvistik belgi bo'libgina qolmay, milliy xarakterning namoyon bo'lishini,





yaratilgan obrazning muayyan mintaqaga tegishlilik belgisini ham ta'minlaganiga guvoh bo'lamiz.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Luqmon Bo'rixon kichik nasrida o'zbek xalqining milliy xarakteri voqealar rivoji, personajlar xatti-harakati va lisoniy vositalar uyg'unligida mukammal ochib berilgan. Yozuvchi qo'llagan milliy detallar va hududiy-etnik xususiyatlar asarlarining hayotiyiligini, estetik va tarbiyaviy qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2002. – B. 85.
2. Bo'rixon L. Kutilgan kun // Ziyo uz.com.
3. Bo'rixon L. Quyosh hali botmagan – T.: O'zbekiston NMIU, 2015. – B. 342, 357, 358, 294.
4. Bo'rixon L. Boltaboyning bolasi // Yoshlik jurnali 2015. № 11. – B. 112.

